

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT SIYOSATI
VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI**

“TASDIQLAYMAN”

**Ilmiy ishlar va xalqaro
aloqalar bo‘yicha prorektor
R. Shurimova**



2026-yil

**08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit” ixtisosligi bo‘yicha O‘zbekiston
Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasida oliy
ta’limdan keyingi ta’lim institutiga kirish imtihoni**

DASTURI

TOSHKENT – 2026

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi ilmiy uslubiy kengashining 2025-yil 27-oktyabrdagi 2 sonli majlis bayonnomasi bilan ma’qullangan.

Tuzuvchilar:

Pardayev U.U

i.f.d., dotsent

Taqrizchilar:

Toshmatov Sh.A

i.f.d., professor

Islamkulov A.X.

i.f.d., professor

KIRISH

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mutaxassislarning malakaviy darajasini ko‘tarish va xalqaro andozalarga mos keluvchi kadrlarning yangi avlodini shakllantirishni talab etadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta‘lim tizimining barcha turlarini, jumladan, oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish bo‘yicha aniq maqsadli keng miqyosdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, zamonaviy xalqaro standartlarga javob beradigan oliy ta‘limning ikki bosqichli tizimi – bakalavriat va magistratura ta‘lim dasturlari shakllantirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4958-son Farmoniga muvofiq mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda erishilgan sur‘atlar oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘limning bir bosqichli tizimi sharoitida orttirilgan tajribaning mohiyatini qator xorijiy mamlakatlarning mazkur sohadagi ilg‘or amaliyotini hisobga olgan holda qayta anglash zarurligini taqozo etmoqda. Hozirgi sharoitda ilmiy kadrlar tayyorlash jarayonini tobora jadal rivojlantirish va sifatini oshirish, iqtidorli yoshlarni ilm-fanga keng jalb qilish, oliy ta‘lim va ilmiy muassasalarning ilmiy salohiyatini mustahkamlash va undan respublikaning innovatsion rivojlanishida samarali foydalanish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shundan so‘ng Hukumat qaroriga asosan “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘limga qo‘yiladigan davlat talablari”, “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim to‘g‘risidagi nizom” qabul qilindi.

Mazkur dastur 08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit” ixtisosligi bo‘yicha tuzilgan bo‘lib, bank, moliya, soliq, sug‘urta, qimmatli qog‘ozlar, xalqaro valyuta-kredit munosabatlari, buxgalteriya hisobi, tahlil va audit fanlarida ko‘zda tutilgan masalalarni qamrab olgan tegishli fan tarmog‘i bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun talabga muvofiq ixtisoslik bo‘yicha malakaviy imtihon topshiruvchi nomzodlarning ushbu fanlardan nazariy va amaliy bilimlarini atroflicha baholash maqsadida tuzilgan.

Davlat va korxonalar moliyasi

Moliyaning kelib chiqishi, uning davlat va pul-tovar munosabatlarini rivojlantirishdagi o‘rni; moliya to‘g‘risidagi fanning shakllanishi va rivojlanishi; davlat moliyasi nazariyasi va klassik qarashlar (A.Smit, D.Rikardo); moliyaning iqtisodiy mohiyati va funksiyalari (taqsimlash, qayta taqsimlash, nazorat); davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida moliyaning roli; moliyaviy resurslar, ularning manbalari va harakati; moliyaning iqtisodiy qonunlar hamda iqtisodiy kategoriyalar (qiymat, narx, ish haqi, foyda, kredit, soliq) bilan o‘zaro bog‘liqligi.

Moliyaviy boshqaruv organlari va institutsional arxitekturasi: davlat moliyasini boshqarishda vakolatlar taqsimoti, byudjet tizimi ishtirokchilari; boshqaruv mexanizmlari — prognozlashtirish, rejalashtirish, ijro va nazorat; o‘rta muddatli byudjetlashtirish va fiskal rejalashtirish; natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish, dasturiy byudjetlashtirish, xarajatlar samaradorligini baholash, “sarflangan mablag‘ga nisbatan qiymat (samara)” tamoyili (ya‘ni mablag‘ sarfi natijasida olinayotgan foyda va sifat nisbati); davlat xarajatlarini qayta ko‘rib chiqish (xarajatlar sharhi) amaliyoti; fiskal xavflar va ularni boshqarish; davlat qarzi barqarorligi tahlili, fiskal qoidalar va limitlar.

Moliyaviy institutlar va bozorlar: moliyaviy vositachilar, kapital va pul bozorlari, resurslarni moliyaviy bozorlar orqali qayta taqsimlash mexanizmi; davlat qimmatli qog‘ozlari bozori (ichki obligatsiyalar, tashqi qarz vositalari), davlat qarzini qayta moliyalashtirish va xizmat ko‘rsatish; davlat kafolatlari va shartli majburiyatlar; davlat krediti shakllari va davlat qarzlari tasnifi; byudjet taqchilligi va uni keltirib chiqaruvchi omillar, taqchillikni moliyalashtirish manbalari; byudjet profitsiti va uning iqtisodiy mazmuni.

Byudjet jarayonining mazmuni va makroiqtisodiy asosi: byudjetni tuzish, muhokama qilish, tasdiqlash, ijro etish va yakuniy hisobotni tasdiqlash; qonun chiqaruvchi organlarda byudjetni ko‘rib chiqish tartibi; byudjet ijrosi monitoringi; byudjet nazoratining mazmuni, ahamiyati, elementlari va tamoyillari; parlament va jamoatchilik nazorati; “fuqarolar uchun byudjet” yondashuvi va ochiq ma‘lumotlar orqali hisobdorlik.

G‘aznachilik tizimi va ichki nazorat: davlat byudjeti g‘azna ijrosi, yagona g‘aznachilik hisob raqami; yuridik majburiyatlarni ro‘yxatga olish, to‘lov intizomi va limitlar; g‘azna operatsiyalarining ichki nazorati tamoyillari; g‘aznachilik bo‘linmalarida narxlar monitoringi va xarajatlarning asoslanganligini baholash; ichki audit va xavflarga asoslangan nazorat (xavflarni baholash, komplayens — muvofiqlik nazorati).

Byudjetlararo munosabatlar: markazlashgan va markazlashmagan pul fondlari, ularning shakllanish mexanizmlari; mahalliy byudjetlar daromad bazasini kengaytirish, transfertlar tizimi (tartibga soluvchi transfertlar, subvensiya va dotatsiyalar) va ularni adolatli formula asosida taqsimlash; fiskal detsentralizatsiya va mahalliy moliyaviy mustaqillikni oshirish; hududiy moliyaviy barqarorlik va mas‘uliyatli byudjet siyosati.

Korxonalar moliyasi: xo‘jalik yurituvchi subyektlarda pul fondlari va moliyaviy resurslar harakati; aylanma kapital va likvidlikni boshqarish; daromad, xarajat, foyda, rentabellik ko‘rsatkichlari; pul oqimlarini (operatsion, investitsion, moliyaviy) rejalashtirish; investitsiya loyihalarini baholash (xarajat–foyda tahlili, sof joriy qiymat, ichki daromad normasi, qoplanish muddati); kapital tuzilmasi va moliyaviy leveredj; dividend siyosati; moliyaviy tavakkalchiliklarni boshqarish (valyuta, foiz, likvidlik, kredit va bozor xavflari); korporativ boshqaruv, hisobdorlik va moliyaviy hisobot standartlari (xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablari, oshkoralik va manfaatlar to‘qnashuvini cheklash).

Zamonaviy tendensiyalar (davlat moliyasi va korxonalar moliyasi kesimida): raqamlashtirish va elektron moliya — elektron g‘aznachilik, elektron hisob-fakturalar, elektron shartnoma va to‘lov tizimlari; moliyaviy texnologiyalar orqali hisobdorlik va nazoratni kuchaytirish; davlat ishtirokidagi korxonalar moliyasida korporativ boshqaruvni kuchaytirish, dividend siyosati va davlat ulushidan tushumlarni boshqarish; davlat-xususiy sheriklik loyihalarida moliyaviy modellashtirish, shartli majburiyatlar xavfini baholash; “yashil” byudjetlashtirish, ekologik-ijtimoiy-korporativ boshqaruv mezonlari asosida investitsiyalarni yo‘naltirish; davlat investitsiyalarining natijadorligi va ijtimoiy ta‘sirini baholash.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi hamda 2025–2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish vazifalaridan kelib chiqib: makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash; byudjet mablag‘larini manzilli va natijaga yo‘naltirilgan taqsimlash; ijtimoiy sohada mablag‘ sarfining samaradorligini oshirish; byudjet ochiqligi va fuqarolar ishtirokini kengaytirish; davlat qarzi xavflarini boshqarish va shaffof hisobot yuritish; mahalliy byudjetlar mustaqilligini bosqichma-bosqich oshirish; iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish sharoitida davlat aktivlari va davlat korxonalarining moliyaviy samaradorligini oshirish.

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrda “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining “Soliq va byudjet siyosatining 2026-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-388-sonli qaroridan kelib chiqib, byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish yo‘nalishlari.

Soliq tizimi

Soliqlar to‘g‘risidagi nazariy qarashlarning asosiy yo‘nalishlari: soliqning davlatchilik va jamoat ehtiyojlarini moliyalashtirishdagi o‘rni; “to‘lash qobiliyati” va “manfaat (foydalanish) tamoyili”ga asoslangan yondashuvlar; samarali soliqqa tortish (iqtisodiy samaradorlik va adolat muvozanati), optimal soliqqa tortish konsepsiyalari; taklif tomoni iqtisodiyoti va rag‘batlantiruvchi soliq siyosati; Artur Laffer egri chizig‘i va soliq stavkasi–yig‘imdorlik munosabati; soliqning iqtisodiy mohiyati va obyektiv zarurligi (ish haqqi, foyda, renta, iste‘molga soliq solish mantig‘i); soliqlarning funksiyalari (fiskal, tartibga solish, qayta taqsimlash, nazorat);

O'rta Osiyoda soliqqa tortish an'analari va tarixiy qarashlar; Amir Temur davrida soliqqa tortish va davlat xarajatlarining intizomini ta'minlashga oid g'oyalar; klassik maktabda soliq nazariyasi va A.Smitning soliq tamoyillari (adolat, aniqlik, qulaylik, tejamkorlik).

Soliq imtiyozlari: soliq imtiyozlarining iqtisodiy maqsadi (investitsiya, eksport, innovatsiya, ijtimoiy himoya, hududiy rivojlanish); imtiyoz turlari — soliq stavkasi pasaytirilishi, bazaning kamaytirilishi, soliqdan to'liq yoki vaqtincha ozod etish, soliq to'lovini kechiktirish/bo'lib-bo'lib to'lash, hisobga olish (kredit) mexanizmlari; "soliq xarajatlari" tushunchasi (ya'ni imtiyozlar sabab byudjet yo'qotayotgan potensial daromad) va uni hisoblash/shaffof e'lon qilish amaliyoti; imtiyozlarni baholashda "sarflangan mablag'ga nisbatan qiymat (samara)" tamoyili (ya'ni berilayotgan imtiyozning iqtisodiy natijasi — investitsiya, ish o'rni, mahsulot hajmi, qo'shilgan qiymat — bilan solishtirib baholash); imtiyozlarning salbiy oqibatlari (baza yemirilishi, raqobat buzilishi, soliqdan qochish imkoniyatlari) va ularni cheklash usullari (muddat, maqsadli mezon, natija indikatorlari, qayta ko'rib chiqish sharti).

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining prinsiplari va soliq ma'muriyatchiligi: soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi, huquqiy aniqlik va barqarorlik; soliq majburiyati, soliq elementlari (subyekt, obyekt, baza, stavka, soliq davri, hisoblash va to'lash tartibi, imtiyozlar, javobgarlik); soliq stavkalari turlari (proporsional, progressiv, regressiv; qat'iy/foizli; samarali stavka tushunchasi); soliq yuki va uni aniqlash usullari (tarmoq/korxonada kesimida; yalpi tushumga nisbatan, foydaga nisbatan, qo'shilgan qiymatga nisbatan); soliqlar va soliqsiz to'lovlar o'xshash va farqli jihatlari; soliq deklaratsiyasi turlari va elektron hisobot; soliq nazorati shakllari (kameral tahlil, hujjatli tekshiruv, sayyor tekshiruv); "tavakkalchilikka asoslangan nazorat" (ya'ni resursni yuqori xavfli segmentga yo'naltirish); soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish, ixtiyoriy ijro (muvofiqlik)ni rag'batlantirish, soliq qarzi va uni undirish mexanizmlari.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining tarkibi va amaliy mexanizmlari: "soliq tizimi" va "soliq mexanizmi" tushunchalari (tizim — soliq turlari, institutlar, huquqiy asoslar majmuasi; mexanizm — hisoblash, to'lash, nazorat va ma'muriyatchilik vositalari); to'g'ri soliqlar (daromad/foyda va mol-mulka soliq solish mohiyati) va egri soliqlar (qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz va boshqalarning iste'molga ta'siri); umumbelgilangan va soddalashtirilgan soliqqa tortish tartiblari, ularning qo'llanish shartlari; mahalliy soliqlar va yig'imlar, mahalliy byudjet daromad bazasi; byudjetdan tashqari jamg'armalarga majburiy to'lovlar va hisoblash tartiblarining o'ziga xosligi; xalqaro ikkiyoqlama soliqqa tortish (rezidentlik—manba tamoyillari), soliq shartnomalari orqali soliq munosabatlarini tartibga solish, transchegaraviy operatsiyalarda soliq risklari.

Soliqqa tortish zamonaviy tendensiyalar, raqamli soliq ma'muriyatchiligi (elektron hisobot, elektron to'lovlar, ma'lumotlar integratsiyasi); "soha va operatsiyalar bo'yicha tavakkalchilik profili" asosida nazoratni kuchaytirish; yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq bazasini kengaytirish; imtiyozlarni maqsadli qilish va ular samaradorligini "soliq xarajatlari" hisoboti orqali baholash; soliq siyosatida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, o'zini o'zi band qilganlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar segmentida rasmiy sektorga ixtiyoriy kirishni rag'batlantirish; iste'molga soliq solish va QQS ma'muriyatchiligida imtiyozlarni qayta ko'rib chiqish tendensiyalari; davlat moliyasi barqarorligi nuqtayi nazaridan soliq tushumlarining prognozlanishi va byudjet rejalashtirish bilan uzviy bog'lanishi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasi maqsadlaridan kelib chiqib soliq siyosatida ustuvor yondashuvlar: barqaror iqtisodiy o'sish va investitsion muhitni yaxshilash bilan birga soliq adolatini ta'minlash; soliq ma'muriyatchiligida shaffoflik va hisobdorlikni oshirish; tadbirkorlik faolligini rag'batlantirishni soliq bazasi kengayishi va yig'imdorlik yaxshilanishi bilan muvofiqlashtirish; soliq imtiyozlarini "natijaga bog'lash" orqali byudjet samaradorligini oshirish.

"2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.12.2025-yildagi O'RQ-1105-son. Soliq va byudjet siyosatining 2026-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.12.2025-yildagi O'RQ-1108-son.

“2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonun ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.12.2025-yildagi PQ-388-son.

Sug‘urta tizimi

Sug‘urtaning iqtisodiy mohiyati va yuzaga kelish shart-sharoitlari. Sug‘urtaning o‘ziga xos belgilari (tavakkalchilikni taqsimlash, ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash, shartnoma va himoya funksiyasi). Sug‘urtaning funksiyalari: risklarni boshqarish (tavakkalchilikni kamaytirish), fiskal va ijtimoiy barqarorlikka hissa, qayta taqsimlash, jamg‘arma (sug‘urta zaxiralari) shakllantirish, investitsion funktsiya (uzoq muddatli resurslar), nazorat va himoya funksiyasi. Sug‘urtaning shakllari va turlari: majburiy sug‘urta va ixtiyoriy sug‘urta; shaxsiy sug‘urta, hayot sug‘urtasi (yig‘imli/annuitet modellari), mulkiy sug‘urta, javobgarlik sug‘urtasi; tadbirkorlik risklarini sug‘urtalash (moliyaviy risklar, ish to‘xtashi, javobgarlik), yuklarni sug‘urtalash (logistika risklari), transport vositalari egalari javobgarligi (uchinchi shaxslar oldidagi javobgarlik) va ish beruvchining fuqarolik javobgarligi majburiy sug‘urtasi. Sug‘urta munosabatlarida “sug‘urta hodisasi”, “sug‘urta tavoni”, “sug‘urta mukofoti”, “sug‘urta summasi”, “sug‘urta qoplamasi” tushunchalari. Sug‘urta shartnomasi va sug‘urta polisi: tuzish bosqichlari, sug‘urta manfaati, xavf/istisno (eksklyuziya)lar, da‘vo (talab)ni ko‘rib chiqish va to‘lovlarni boshqarish. Zararni aniqlash (ekspertiza), to‘lanadigan sug‘urta summalarini hisoblash, sug‘urta dalolatnomasida aks ettirish. “Franshiza” (sug‘urta tovonidan ushlab qolinadigan to‘lanmaydigan qismi) va uning risk-intizomga ta‘siri. Sug‘urta zaxiralari (texnik zaxiralalar) va ularni shakllantirish: to‘lovga qobillik (solventlik), kapital yetariligi, aktivlar sifatini baholash, investitsiya siyosati va aktiv-majburiyatlar muvofiqligi. Qayta sug‘urta (riskni qayta taqsimlash) va hamsug‘urta: milliy qayta sug‘urta salohiyati, tashqi qayta sug‘urtaga bog‘liqlikni kamaytirish, katta risklar (katastrofik risklar)ni boshqarish. Sug‘urta bozorini kapitalizatsiya qilishning maqsadi: moliyaviy barqarorlik, katta tavakkalchiliklarni qoplash salohiyati, iste‘molchi ishonchi. Sug‘urta nazoratini tashkil etish prinsiplari: litsenziyalash, hisobdorlik, mijoz huquqlarini himoya qilish, bozor intizomi; tavakkalchilikka asoslangan nazorat (nazorat resurslarini yuqori xavfli segmentlarga yo‘naltirish) va muvofiqlik (ixtiyoriy ijro)ni rag‘batlantirish. Sug‘urta bozori ishtirokchilari: sug‘urtalovchi, sug‘urta vositachilari (sug‘urta agenti, sug‘urta brokeri, qayta sug‘urta brokeri), aktuariy, assistans xizmatlari, syurveyer va avariya komissari.

Sug‘urta bozorini raqamlashtirish: yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimlari orqali polislarni rasmiylashtirish va shartnomalarni ro‘yxatdan o‘tkazish, elektron kanallarda sotuv va servis yo‘nalishlari. “Sug‘urta texnologiyalari” — ma‘lumotlar tahlili, masofaviy identifikatsiya, telematika (avto va yuklarda riskni aniqlash), masofaviy baholash va tezkor to‘lov (da‘volarni raqamli ko‘rib chiqish). Iste‘molchini himoya qilish standartlari: xizmat sifati bo‘yicha reytinglar, oshkora tarif va shartlar, shikoyatlarni ko‘rib chiqish tartibi, moliyaviy savodxonlikni oshirish. Barqaror rivojlanish va “yashil” sug‘urta: iqlim risklari, qishloq xo‘jaligi tavakkalchiliklari, tabiiy ofatlar risklarini qoplash, parametrik sug‘urta elementlari (oldindan belgilangan ko‘rsatkich bo‘yicha to‘lov). Korporativ boshqaruv va risk-menejment: ichki nazorat, komplayens, antifrod (aldamchilikka qarshi) tizimlar, pul mablag‘larini legallashtirishga qarshi talablar bilan muvofiqlik. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi maqsadlaridan kelib chiqib sug‘urta siyosatida ustuvor yo‘nalishlar: moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish, aholi va biznes risklarini institutsional himoya qilish, raqamli infratuzilma va hisobdorlikni kuchaytirish, investitsion resurslarni ko‘paytirish va bozor ishonchini mustahkamlash.

O‘zbekiston Respublikasining 23.11.2021-yildagi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-730-son Qonuni. O‘zbekiston Respublikasining 21.04.2008-yildagi “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-155-son Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasining 16.04.2009-yildagi “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-210-son Qonuni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.03.2024-yildagi “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-108-son qarorida

belgilangan ustuvor vazifalar. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.07.2024-yildagi “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar belgilanganligi munosabati bilan ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 458-son qarori.

Pul muomalasi va bank ishi

Bank tizimi va pul muomalasining nazariy-amaliy asoslari: banklarning funksional yo‘nalishi bo‘yicha klassifikatsiyasi (emission bank — Markaziy bank; tijorat banklari; davlat ulushi mavjud banklar; xususiy banklar; ixtisoslashgan banklar; nobank kredit tashkilotlari va mikromoliya tashkilotlari); pulning mohiyati va funksiyalari, pul muomalasi qonunlari; pul agregatlari (M0, M1, M2) va ularning iqtisodiyotdagi ahamiyati; pul-kredit siyosati maqsadlari (narxlar barqarorligi, moliyaviy barqarorlik) va transmissiya mexanizmi (foiz kanali, kredit kanali, kutilmalar kanali, almashuv kursi kanali); inflyatsiyani nishonlash (maqsadli inflyatsiya) sharoitida Markaziy bank instrumentlari (qayta moliyalashtirish stavkasi, ochiq bozor operatsiyalari, majburiy zaxira normalari, likvidlikni tartibga solish); bank nazoratining zamonaviy yondashuvlari — tavakkalchilikka asoslangan nazorat, stress-sinov (stress-test) va aktivlar sifatini baholash (aktivlar sifatini kompleks tahlil qilish) kabi instrumentlar; Bazil qo‘mitasi tavsiyalari (Bazil II–III) asosida kapital yetariligi, likvidlik (LCR/NSFR mazmuni), risklarni hisoblash va prudensial me‘yorlar.

Huquqiy munosabatlar va hisob-kitoblar infratuzilmasi: bank–mijoz munosabatlarining huquqiy tabiati (shartnoma, bank sirini saqlash, iste‘molchi huquqlari, identifikatsiya va komplayens talablari); bank hisobraqamlari turlari va ularni ochish/yuritish/yopish tartibi; “mijozning yagona ma‘lumotlar fayli (master-fayl)” tushunchasi (mijoz to‘g‘risidagi asosiy identifikatsion va operatsiyaviy ma‘lumotlarni birlashtiruvchi yagona baza); hisobraqam bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatish, boshqa bankka o‘tkazish, hisobraqamni yopishdagi huquqiy asoslar; naqdsiz hisob-kitoblarni tashkil etish prinsiplari, to‘lov navbati va hujjat aylanishi; to‘lov hujjatlari (to‘lov topshiriqnomasi, to‘lov talabnomasi, inkassa topshiriqnomasi, chek, akkreditiv turlari va ularning xavf–samara muvozanati); banklararo hisob-kitoblar va elektron to‘lov tizimlari; bank kartalari, elektron hamyonlar, QR-to‘lovlar, tezkor to‘lov infratuzilmasi; faktoringning iqtisodiy mohiyati (debitor qarzini moliyalashtirish) va turlari (regressli/regresssiz, ochiq/yashirin); zamonaviy talab sifatida antifrod (moliyaviy firibgarlikka qarshi) tizimlari — operatsiyaviy monitoring, sessiya tahlili, tranzaksion va telekommunikatsion antifrodni joriy etish va xavfli operatsiyalarni bloklash (kibertavakkallarni pasaytirish).

Tijorat banklari resurs bazasi va aktiv-passiv boshqaruvi: bank passivlari (kapital, depozitlar, banklararo qarz, qarz qimmatli qog‘ozlari) va aktivlari (kreditlar, investitsiyalar, likvid aktivlar) tarkibi; depozit siyosati, depozit mahsulotlari va narxlanishi (foiz siyosati); nodepozit resurslarining (obligatsiya, banklararo liniyalar) passivlardagi o‘rni; aktivlar risk–daromad munosabati, kredit portfelini diversifikatsiya qilish; kreditlashtirish tamoyillari (qaytarishlilik, to‘lovlilik, muddatlilik, ta‘minlanganlik) va zamonaviy kredit skoringi; ta‘minot turlari va kredit risklarini pasaytirish mexanizmlari (garov, kafolat, sug‘urta, kovenantlar); likvidlikni boshqarish (ALM — aktiv va majburiyatlarni boshqarish), likvidlik “buferi” va krizis holatlar rejasi; bank risklarining toifalari (kredit, bozor, likvidlik, operatsion, huquqiy, komplayens, kiberxavfsizlik) va ularni boshqarish modeli; bank daromadlari (foiz daromadlari va foizsiz — komissiya/tarif) hamda rentabellik (ROA/ROE mazmuni)ga ta‘sir qiluvchi omillar.

Qimmatli qog‘ozlar, valyuta va bank xizmatlarining diversifikatsiyasi: banklarning qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalari (savdo portfeli/investitsiya portfeli; emitent sifatida chiqarish; brokerlik/dilerlik vositachiligi); jamg‘arma sertifikatlari, vekselning hisob-kitob va kredit hujjati sifatidagi tabiati; valyuta munosabatlarida banklarning roli, valyutani tartibga solish va valyuta operatsiyalari (litsenziyalash, hisob-kitob tartiblari, valyuta bozori infratuzilmasi); trast, kommission va omborli operatsiyalar, lizing (moliyaviy ijara) operatsiyalari; zamonaviy trend sifatida moliyaviy texnologiyalar (fintex), ochiq bank xizmatlari (open banking — “ochiq bank

interfeyslari”), masofaviy identifikatsiya, raqamli bank mahsulotlari va kross-sektor integratsiya (bank–sugʻurta–investitsiya xizmatlari ekotizimi).

Pul-kredit siyosati va inflyatsiyani pasaytirish: Markaziy bank hisobotlari va parlament muhokamalarida inflyatsiya/bazaviy inflyatsiyani pasaytirish, transmissiyani kuchaytirish, foiz stavkalari orqali kutilmalarni boshqarish vazifalar.

Raqamli toʻlovlar va toʻlov tashkilotlari bozori: toʻlov tizimi operatorlari va toʻlov tashkilotlarini litsenziyalash talablarining yangilanishi, tashkiliy-huquqiy shakllar va kapital/boshqaruv talablarini tushunish; toʻlov infratuzilmasida xavflarni boshqarish.

Kiberxavfsizlik va antifrod: bank va toʻlov infratuzilmasida kiberxavfsizlik talablariga muvofiqlik yuzasidan ekspertiza tartiblari, muhim axborot infratuzilmasi obyektlariga qoʻyiladigan talablar; mijoz manfaati va moliyaviy xavfsizlikni ustuvor qoʻyish, markazlashgan antifrod tizimlari konsepsiyasi.

Mikromoliyalashtirish va moliyaviy inklyuziya: mikromoliya institutlarini takomillashtirish, kredit tashkilotlari shakllarining oʻzgarishi (jumladan, mikromoliya bankiga transformatsiya imkoniyatlari), shu orqali rasmiy moliyaviy xizmatlar qamrovini kengaytirish.

Davlat ishtirokini qisqartirish, banklar transformatsiyasi va kapital bozorlari bilan bogʻliqlik: davlat ulushi mavjud aktivlarni boshqarish, aksiyalarni jamlash/investorlarga taklif qilish, banklar faoliyati samaradorligini oshirish bilan bogʻliq qarorlar mantigʻini anglash.

“Oʻzbekiston — 2030” strategiyasi logikasi: barqaror iqtisodiy oʻsish, institutsional samaradorlik, raqamlashtirish va hisobdorlik ustuvorligi doirasida bank tizimining roli (investitsiya muhitini yaxshilash, moliyaviy barqarorlik, raqamli infratuzilma).

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 18.05.2024-yildagi “Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yildagi faoliyati toʻgʻrisidagi hisoboti haqida”gi SQ-910-IV-son.

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori, 21.05.2024-yilda roʻyxatdan oʻtgan “Toʻlov tizimi va toʻlov tashkilotlarining axborot xavfsizligi hamda kiberxavfsizligiga qoʻyiladigan talablar toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 3513-son.

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori, 04.07.2024-yilda roʻyxatdan oʻtgan “Toʻlov tizimi operatorlari va toʻlov tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash tartibi toʻgʻrisidagi nizomga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish haqida”gi 3431-1-son.

Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni, 20.09.2024-yildagi “Oʻzbekiston Respublikasining “Oʻzbekiston Respublikasining Markaziy banki toʻgʻrisida”gi Qonuniga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish haqida”gi OʻRQ-964-son.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.07.2024-yildagi “Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-252-son.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 19.09.2024-yildagi “Oʻzbekiston Respublikasi milliy investitsiya jamgʻarmasini tashkil etish toʻgʻrisida”gi PQ-303-son.

Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni, 11.02.2025-yildagi “Mikromoliyalashtirish faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida”gi OʻRQ-1026-son.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.04.2025-yildagi “Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-153-son (banklar va toʻlov tashkilotlarida mijoz manfaati va moliyaviy xavfsizlikni ustuvor vazifa sifatida belgilash, antifrod yondashuvlari).

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori, 14.07.2025-yilda roʻyxatdan oʻtgan “Kiberxavfsizlik talablariga muvofiqlik yuzasidan ekspertizadan oʻtkazish tartibi toʻgʻrisidagi nizomga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish haqida”gi 3573-1-son.

Qimmatli qogʻozlar va moliya bozori

Qimmatli qog'ozlarning mohiyati va iqtisodiy mazmuni. Qimmatli qog'ozlar tasnifi va asosiy turlari: aksiya, obligatsiya, depozit sertifikat, veksell, investitsiya payi (pay fondi ulushi), ipoteka/aktivlar bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar (aktivlar bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar). Aksiya va obligatsiyaning farqi: mulkchilik kapitali (ulushdorlik) va qarz majburiyati logikasi; dividend siyosati va kupon siyosati; imtiyozli aksiyalar hamda ularning korporativ moliyadagi o'rni. Qimmatli qog'ozlarning daromad va risk profili: kupon/dividend daromadi, kapital o'sishi, defolt (to'lovni bajarmaslik) riski, likvidlik (tez sotish-olish imkoniyati) riski, qayta moliyalashtirish riski, foiz stavkasi riski va bozor narxi riski. Korporativ huquq va investor himoyasi bloki: aksiyadorlar huquqlari, minoritar aksiyadorlar himoyasi, korporativ harakatlar (dividend e'lon qilish, aksiyalarni maydalash/qo'shish, qo'shimcha emissiya va boshqalar), axborotni oshkor etish madaniyati, korporativ boshqaruv standartlari va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish.

Qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati, funksiyalari va uning turlari. Qimmatli qog'ozlar bozorining tuzilmasi: birlamchi bozor (aksiyalarni birinchi ommaviy joylashtirish, qo'shimcha ommaviy joylashtirish, obligatsiya emissiyasi, yopiq joylashtirish, emissiyani joylashtirishni kafolatlash — anderryting) hamda ikkilamchi bozor (birja savdosi va birjadan tashqari savdo; narxni aniqlash mexanizmi; likvidlik va narxlar farqi — spred). Qimmatli qog'ozlar bozori infratuzilmasi: birja, markaziy depozitariy, kliring va hisob-kitob tizimlari, kastodian (saqlovchi), registr/hisob yuritish xizmati, axborot oshkor qilish platformalari va post-savdo (posttrejding) institutlari. Bozor funksiyalari: kapitalni safarbar qilish, resurslarni qayta taqsimlash, riskni boshqarish (xedjlash), korporativ boshqaruvni intizomlashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash va uzoq muddatli moliyaviy resurslarni iqtisodiyotga jalb qilish. Amaldagi institutsional logikani tushunish: kapital bozorini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar orqali infratuzilma va tartibga solishni modernizatsiya qilish, depozitar hisobni yagona yuritish, hisob-kitob intizomini oshirish va oshkorlik talablarini kuchaytirish.

Qimmatli qog'ozlar bozorining qatnashchilari. Emitentlar: aksiyadorlik jamiyatlari, banklar, davlat va davlat ishtirokidagi korxonalar (xususiylashtirish va kapital bozori o'zaro bog'lanishi). Investorlar: chakana investorlar, institutsional investorlar (sug'urta tashkilotlari, pensiya institutlari, investitsiya fondlari), norezident investorlar. Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat turlari: brokerlik, dilerlik, investitsiya maslahatchiligi, emissiyani joylashtirishni kafolatlash (anderryting), market-meykerlik (likvidlik ta'minlash), portfel boshqaruvi (aktivlar boshqaruvi), depozitariy va kastodian xizmatlari, transfer-agent/registr xizmatlari, kliring va hisob-kitobni tashkil etish. O'z-o'zini tartibga solish institutlari va komplayens: ichki nazorat tizimlari, manfaatlar to'qnashuvi, mijozga moslik bahosi (mahsulot/xizmatning mijozga mosligi), mijozni taniyish (KYC) va pul yuvishga hamda terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash (AML/CFT) talablari, bozorni suiiste'mol qilish (manipulyatsiya va insayderlik)ga qarshi siyosatlar.

Qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish: emissiya jarayoni arxitekturasi (qaror qabul qilish → emissiya prospekti/axborot hujjati → ro'yxatdan o'tkazish → joylashtirish → birja ro'yxatiga kiritish (listing) → muomala va doimiy axborotni oshkor etish). Emissiyani joylashtirish modellari: to'liq kafolatli joylashtirish va sa'y-harakat asosida joylashtirish, talabni yig'ish (buildbuk), narxlash strategiyasi va emissiyadan keyin bozorni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari. Listing talablari: korporativ boshqaruv, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bo'yicha hisobot (XMHS/IFRS), tashqi audit, axborotni oshkor etish rejimi, risklarni ochiqlash va investorlar bilan kommunikatsiya. Investorlarni himoya qilish: majburiy axborot oshkor etish, manipulyatsiya va insayderlikka qarshi mexanizmlar, adolatli savdo muhitini ta'minlash.

Qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalar: savdo qilishning asosiy tamoyillari (adolatli narx, shaffoflik, mijoz manfaatini ustuvor qo'yish), eng yaxshi ijro tamoyili. Buyurtma turlari: bozor buyrug'i, chegarali buyruq, to'xtatish buyrug'i, yashirin hajmli buyruq, kunlik buyruq, bekor qilinmaguncha amal qiladigan buyruq; buyurtmalar kitobi mikrostrukturasi, spred va likvidlik ko'rsatkichlari. Hisob-kitob va saqlash: "operatsiya sanasidan keyin N kun" tamoyili (T+N), "to'lovga qarshi yetkazib berish" tamoyili, kliring, reestr-depozitariy-kastodian zanjiri.

Marjinal savdo, qayta sotib olish sharti bilan kelishuv (repo), qimmatli qog'ozlarni qarzga berish va ularga xos risklar: marja talabi, diskont koeffitsenti, kontragent riski va likvidlik bosimi. Daromad to'lovlari: dividend va foizlarni to'lash zanjirida markaziy depozitariy va investitsiya vositachilari roli, to'lovlar monitoringi va hisobdorlik.

Hosilaviy moliyaviy instrumentlar to'g'risida umumiy tushuncha, ularning qimmatli qog'ozlar bozoridagi o'rni va risk-menejmentdagi vazifasi. Hosilaviy instrumentlar xaritasi: forvard shartnomalari, fyuchers shartnomalari, svop shartnomalari, opsionlar; birja hosilaviy instrumentlari va birjadan tashqari hosilaviy instrumentlar farqi (standartlashtirish, kliring, marja va kontragent riski). Xedjlash, spekulyatsiya va arbitraj: har birining motivatsiyasi, risk profili va qo'llanish ssenariylari. Marja, kliring, boshlang'ich marja va o'zgaruvchan marja tushunchalari. Opsion va uning turlari: sotib olish opsioni va sotish opsioni; Yevropa uslubidagi va Amerika uslubidagi opsion; oddiy va murakkab opsionlar. Opsionni qo'llashda "shartnoma birligi", "lot", "ijro narxi" va "mukofot puli" tushunchalari. Opsion risk ko'rsatkichlari (grek koeffitsiyentlari): delta, gamma, teta, vega; "sotish va sotib olish opsionasi tengligi" qonuniyati, implitsit o'zgaruvchanlik, o'zgaruvchanlik "tabassum" effekti va zamonaviy opsion narxlash muhiti.

Aktivlarni baholash va narxlash: vaqt qiymati va diskontlash, daromadlilik, obligatsiya davomiyligi va qavariqligi, kredit spredlari. Portfel nazariyasi: Markovis diversifikatsiyasi, samarali chegara, risk-daromad muvozanati. Kapital aktivlarini baholash modeli: risksiz foiz stavkasi, aksiyadorlik risk mukofoti, beta koeffitsiyenti va bozor riski mukofoti. Arbitraj narxlash nazariyasi: omillarga asoslangan narxlash va arbitraj cheklovlari. Bozor samaradorligi gipotezasi va xulq-atvor moliyasi: irratsional qarorlar, ortiqcha reaksiya, ommaviy ergashish, axborot asimmetriyasi. Kredit riskni modellashtirish: defolt ehtimoli, defoltda yo'qotish ulushi, defolt paytidagi ta'sir hajmi, reytinglar, foiz farqi va qarz instrumentlari bahosi.

Investitsiya fondlarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi o'rni: ochiq va yopiq fondlar, pay investitsiya fondlari, birjada savdo qilinadigan indeks fondlari (mavjud infratuzilma sharoitida), venchur moliyalashtirish va xususiy kapital logikasi. Fond iqtisodiyoti: sof aktivlar qiymati, boshqaruv haqi va natija uchun haq, likvidlik hamda qaytarib sotib olish talabi risklari. Investor manfaatlarini himoya qilish: fidutsiar majburiyat, portfel cheklovlari, risk limitlari, hisobdorlik va oshkorlik.

Qimmatli qog'ozlar bozorida banklarning faoliyati: investitsiya bank funksiyalari (emissiyani joylashtirishni kafolatlash, likvidlik ta'minlash, kastodianlik, brokerlik/dilerlik), likvidlik menejmenti, stress-sinovlar, kapital yetarliligi va bozor riski bilan bog'liqlik. Raqamli kanallar orqali investitsiya xizmatlari: mobil brokerlik, elektron identifikatsiya, masofaviy mijoz qabul qilish, chakana investorni ommaviy jalb qilish, kibernetika va ma'lumotlar maxfiyligi talablari.

"Moliya bozori" tushunchasi, uning mazmuni, maqsad va vazifalari. Moliya bozorining tasnifi, tuzilmasi va tarkibiy qismlari: pul bozori, kapital bozori, valyuta bozori, sug'urta bozori, hosilaviy instrumentlar bozori. Moliya bozorining iqtisodiy-huquqiy asoslari va faoliyat mexanizmi: institutsional nazorat, litsenziyalash, axborotni oshkor etish, hisob-kitob infratuzilmasi, komplayens va risk-menejment. Moliyaviy globallashtirish sharoitida moliya bozori rivojining zamonaviy tendensiyalari va muammolari: raqamlashtirish, innovatsion mahsulotlarni maxsus huquqiy rejimda sinovdan o'tkazish, ekologik-ijtimoiy va korporativ boshqaruv mezonlari asosida moliyalashtirish (yashil obligatsiyalar, barqarorlikka bog'liq instrumentlar), islom moliyasi instrumentlari (sukuk modellari), qimmatli qog'ozlarni tokenlashtirish, taqsimlangan reestr texnologiyalari asosida kliring, pul yuvishga qarshi talablar va bozor manipulyatsiyasi riski.

O'zbekiston moliya bozorining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari. "O'zbekiston—2030" strategiyasi ustuvorliklari bilan bog'lash: bank-moliya sohasini chuqur isloh qilish, raqobat va bozor hajmini oshirish, chet ellik nominal saqlovchilar va kastodian banklar ishtirokini ta'minlaydigan infratuzilmani yaratish, kapital bozorida investitsiya muhitini yaxshilash va yangi instrumentlarni joriy qilish bo'yicha aniq vazifalar. Kapitalni joylashtirish va portfel boshqarish: aktivlarni strategik taqsimlash, risk byudjetlash, diversifikatsiya, likvidlikni rejalashtirish va xedjlash siyosatlarini.

Qimmatli qogʻozlar bozorini tartibga solishning mohiyati, maqsadi va vazifalari. Qimmatli qogʻozlar bozorini davlat tomonidan tartibga solish: investor himoyasi, bozor adolatligi, oshkoralik, tizimli riskni cheklash, manipulyatsiya va insayderlikka qarshi mexanizmlar. Sanksiya va ijro: huquqbuzarlik ishlarini koʻrib chiqish, protsessual standartlar, jazo choralari va regulyator nazorati. Pul yuvishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi talablarni integratsiya qilish: mijozni taniyish, shubhali operatsiyalarni monitoring qilish, benefitsiar mulkdorni aniqlash va sanksiyalar komplayensi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi PF-68-son Farmoni — “Lotereyalar va tavakkalchilikka asoslangan oʻyinlarni tashkil etish va oʻtkazishni tartibga solishni takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi PQ-163-son Qarori — “Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni transformatsiya qilish va xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi PQ-109-son Qarori — ““Oʻzbekiston—2030” strategiyasini 2024-yilda amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida”. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-apreldagi 238-son Qarori — “Qimmatli qogʻozlar bozorida mijozlarni masofadan turib raqamli identifikatsiya qilish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida”. Oʻzbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining 2024-yil 29-yanvardagi, Adliya vazirligida roʻyxatdan oʻtgan 3493-son hujjati — “Kapital bozori sohasida “Tartibga solish qumdoni” maxsus huquqiy rejimini taqdim qilish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida”. Oʻzbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining 2024-yil 6-maydagi 04-son buyrugʻi (Adliya vazirligi roʻyxati: 3523, 28.06.2024) — “Qimmatli qogʻozlar daromadlari (dividendlar, foizlar) toʻlovlarini “Qimmatli qogʻozlar markaziy depozitariysi” aksiyadorlik jamiyati va (yoki) investitsiya vositachilari orqali amalga oshirish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida”. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrda PF-254-son Farmoni — “Kapital bozorida investitsiya muhitini yaxshilashga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”. Oʻzbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining 2025-yil 27-maydagi, Adliya vazirligida roʻyxatdan oʻtgan 3625-son hujjati — “Qimmatli qogʻozlar bozorida hiyla-nayrangning oldini olish qoidalarini tasdiqlash toʻgʻrisida”. Oʻzbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining 2025-yil 30-iyuldagi, Adliya vazirligida roʻyxatdan oʻtgan 3655-son hujjati — “Qimmatli qogʻozlar bozori sohasidagi qonunchilik hujjatlarining buzilishiga doir ishlarni koʻrib chiqish va sanksiyalar qoʻllash tartibi toʻgʻrisidagi nizom”.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-yanvardagi “Oʻzbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida” PQ-4127-son Qarori mazmun-mohiyati.

Investitsiya va investitsion siyosat

Investitsiyalarning mazmuni, iqtisodiy mohiyati va ahamiyati. Investitsiyalarni iqtisodiy oʻsishning asosiy omili sifatida qarash: kapital jamgʻarilishi, texnologik yangilanish, mehnat unumdorligini oshirish, ish oʻrinlari yaratish, tarmoqlar raqobatbardoshligini kuchaytirish, makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy xavfsizlikka taʼsiri. Investitsiyalarning tasnifi va shakllari: real investitsiyalar (asosiy kapitalga yoʻnaltirilgan qoʻyilmalar, infratuzilma, texnologiya va uskunalar), moliyaviy investitsiyalar (qimmatli qogʻozlar, depozitlar va boshqa moliyaviy instrumentlar), toʻgʻridan-toʻgʻri investitsiyalar (korxonaga bevosita kiritiladigan investitsiyalar), portfel investitsiyalar, venchur moliyalashtirish va xususiy kapital asosida moliyalashtirish, “yashil” investitsiyalar va ijtimoiy taʼsirga yoʻnaltirilgan investitsiyalar. Investitsiya faoliyati subyektlari va obyektlari: davlat, mahalliy va xorijiy xoʻjalik yurituvchi subyektlar, banklar va moliyaviy tashkilotlar, aholi jamgʻarmalari; obyekt sifatida investitsiya loyihalari, tarmoqlar, hududlar, korxonalar, aktivlar portfeli, innovatsiya va startaplar. Investorlar va ularning maqsadlari: daromad–risk muvozanatini taʼminlash, likvidlikni saqlash, diversifikatsiya, inflyatsiyadan himoya, strategik nazorat (strategik investor), texnologiya va boshqaruv tajribasini olib kirish, yangi bozorlarga chiqish. Yakka tartibdagi investorlar, institutsional investorlar

(sug'urta tashkilotlari, pensiya institutlari, investitsiya fondlari) va professional investorlar (aktivlarni boshqaruvchi tashkilotlar, investitsiya vositachilari)ning roli. Investorlarning cheklovlari: risk limitlari, regulyator talablari, valyut cheklovlari, kapitalni qaytarish tartiblari, ekologik-ijtimoiy va korporativ boshqaruv mezonlari bo'yicha cheklovlar, mijozni taniyish va pul yuvish hamda terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash talablari. Investitsiya maqsadlari va amaliyotda ularning uyg'unlashuvi: rivojlanish strategiyasi, dividend siyosati, qayta investitsiya qilish, kapital tuzilmasi (qarz va o'z kapitali nisbati), korporativ boshqaruv hamda minoritar investorlarni himoya qilish. Investitsiya portfeli va investitsiyalarni boshqarish: aktivlarni strategik taqsimlash, taktik qayta balanslash, riskni baholash va boshqarish (havf ostidagi ehtimoliy yo'qotish, stress-sinov, senariy tahlil), natijadorlikni baholash (me'yoriy etalonga nisbatan baholash, qo'shimcha daromad ko'rsatkichi va riskka sezgirlik), likvidlikni rejalashtirish.

Investitsion mablag'larni shakllantirish tamoyillari va ularning amal qilish tizimi. Investitsiya manbalarini shakllantirish: ichki manbalar (taqsimlanmagan foyda, amortizatsiya jamg'armasi), tashqi manbalar (bank krediti, obligatsiya chiqarish, aksiya chiqarish, loyiha moliyalashtirishi, sindikat kreditlash, davlat-xususiy sheriklik, grantlar, kafolatlar). Aralash moliyalashtirish (davlat, xususiy sektor va xalqaro moliya institutlari resurslarini birlashtirish) logikasi. Turli investitsion mablag' manbalarining fundamental xususiyatlarining qiyosiy tahlili: kapital qiymati, muddat, ta'minot va kafolat talablari, shartnoma majburiyatlarini (kovenantlar), qayta moliyalashtirish riski, valyut riski. Real va moliyaviy aktivlar, ularning o'zaro bog'liqligi: foiz stavkalari, inflyatsiya kutilmalari, valyuta kursi, aktivlar narxi dinamikasi va kapital oqimlari o'zaro ta'siri; moliyaviy aktivlar tarkibi: aniq daromadli qimmatli qog'ozlar, aksiyalar, hosilaviy qimmatli qog'ozlar (derivativlar), xedjlash (tavakkalni qoplash) strategiyalari.

Investitsiya muhiti. Investitsiya muhitini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va baholash parametrlari: institutlar sifati, huquqiy kafolatlar, sud-huquq tizimi mustaqilligi, regulyator barqarorlik, soliq ma'murchiligi sifati, infratuzilma (energiya, transport, logistika), mehnat resurslari sifati, raqamli infratuzilma, bozor hajmi va raqobat muhiti, mamlakat riski va suveren reyting. Investitsiya muhitini aniqlovchi omillar: siyosiy barqarorlik, mulk huquqi himoyasi, shartnomalar ijrosi, korrupsiya xavfi, davlat xizmatlari samaradorligi, tashqi iqtisodiy ochiqlik. Investitsiya muhitini Jahon banki yondashuvida baholash: biznes muhitini baholashning yangi tizimi (Biznesga tayyorlik indeksi) orqali huquqiy-me'yoriy asoslar, davlat xizmatlari sifati va amaliyot ko'rsatkichlarini kompleks tahlil qilish. MDH davlatlari investitsiya muhitini qiyosiy tahlil qilish: institutlar, infratuzilma va regulyator sifat farqlari orqali investitsiya raqobatbardoshligini baholash.

Investitsiya siyosatining nazariy jihatlarini. Investitsiya siyosatini shakllantiruvchi asosiy nazariyalar va konsepsiyalar: neoklassik o'sish nazariyasi (kapital jamg'arilishi), endogen o'sish nazariyasi (innovatsiya va inson kapitali), institutsional iqtisodiyot (qoidalar va institutlar sifati), transmilliy korporatsiyalar investitsiya qarorlarini tushuntiruvchi "mulkchilik-joylashuv-ichkilashtirish" paradigmasi, davlat investitsiyalarining xususiy investitsiyalarni jalb etishi yoki siqib chiqarishi ta'sirlari, sanoat siyosati (klasterlar, lokalizatsiya, qiymat zanjirlari). Chet el investitsiyalarining mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri: texnologiya va boshqaruv tajribasining tarqalishi, eksport salohiyati, valyuta tushumlari, mehnat bozoriga ta'sir, raqobat muhitini o'zgartirish, strategik tarmoqlar bo'yicha xavfsizlik masalalari. Investitsiya va tashqi savdo siyosatining o'zaro bog'liqligi: import o'rnini bosish siyosatlari va eksportni rag'batlantirish siyosatlari; global qiymat zanjirlariga integratsiya; bojxona va logistika islohotlari orqali sarmoyaviy jozibadorlikni oshirish.

Asosiy vositalar va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqib investitsiya siyosatining tavsiflanishi. Kapital oqimlarining kirib kelishi va chiqib ketishi ustidan davlat nazorati samaradorligi: makroehtiyotkorlik siyosati, valyuta riskini cheklash, kapital harakati tartibi, repatriatsiya (foydani olib chiqish) qoidalari. Asosiy investitsion rejimlar: umumiy rejim, imtiyozli rejim, maxsus iqtisodiy hududlar rejimi, davlat-xususiy sheriklik rejimi. Chet el investorlariga davlat kafolatlari: mulk huquqi, foydani erkin o'tkazish, qonunchilik barqarorligi, nizolarni hal qilish mexanizmlari. Davlatning tartibga solish vositalari: soliq va moliyaviy

imtiyozlar, subsidiyalar, kafolatlar, yer va infratuzilma ajratish, litsenziyalashni soddalashtirish, “bir darcha” xizmatlari, investitsiya shartnomalari. Chet el kapitali kirib kelishini rag‘batlantiruvchi yo‘nalishlar: tarmoqlar bo‘yicha ustuvorliklar, yuqori qo‘shilgan qiymatli ishlab chiqarish, eksportga yo‘naltirilgan loyihalar. Xorijiy va milliy investorlarga beriladigan solikli, moliyaviy va boshqa imtiyozlar: soliq stavkasi pasaytirish, bojxona imtiyozlari, kredit va foiz subsidiyalari, infratuzilma xarajatlarini qoplash mexanizmlari.

Xo‘jalik subyektlarining aktiv va passiv investitsiya siyosatlarini. Aktiv investitsiya siyosati: o‘shirish strategiyasi, ishlab chiqarishni kengaytirish, innovatsiya joriy etish, bozor ulushini oshirish. Passiv investitsiya siyosati: mavjud aktivlarni saqlash, riskni kamaytirish, likvidlikni ustuvorlash, kapitalni muhofaza qilish. Investitsiyalarni o‘zaro himoyalash va rag‘batlantirish bo‘yicha kelishuvlar: ikki tomonlama investitsiya bitimlari, investitsiya nizolarini hal qilish tartibi, kafolatlar. Hududiy investitsiya shartnomalari: muayyan hududlarda loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, infratuzilma va imtiyozlar paketi. Chet el investitsiyalarini hududiy darajada tartibga solish: hududiy agentliklar, hududiy “loyihalar portfeli”, mahalliy xavflar tahlili. Erkin savdo zonalarini barpo etish, o‘zaro kapitallarni to‘liq va qisman erkinlashtirish. Xalqaro institutlar roli: Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Jahon bankining investitsiya muhitini yaxshilashdagi tavsiyalari, Jahon savdo tashkiloti doirasidagi xalqaro investitsiya qoidalari va kelishuvlar.

Xalqaro investitsiyalarning obyekti, vazifalari va funksiyalari. Xalqaro investitsiyalarning turlari va asosiy vositalari: to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, portfel investitsiyalar, qarz kapitali, loyiha moliyalashtirishi, suveren jamg‘armalar investitsiyalari. Valras modeli va bozor muvozanati konsepsiyasi. Xalqaro kapital harakati shakllari: kapital eksporti, kapital importi, transchegaraviy moliyalashtirish. Xalqaro investitsiya oqimlari va bozorlari: xalqaro kapital bozori, yevrobondlar bozori, xalqaro aksiya bozorlari. Xalqaro investitsiya bozori va uning segmentlari: davlat qarzi, korporativ qarz, aksiyalar, hosilaviy instrumentlar, tovar-xomashyo moliyalashtirishi. Xalqaro investitsiyalash qoidalari: xalqaro standartlar, oshkorlik, komplayens, sanksiyalar rejimi. “Moliya bozori konyunkturasi” tushunchasi, tarkibi va uni tadqiq etish tamoyillari: foiz stavkalari, kredit spredlari, likvidlik, inflyatsiya kutilmalari, valyuta kursi o‘zgarishi, narxlar o‘zgaruvchanligi. Xalqaro investitsiya bozorining institutlari: transmilliy banklar, investitsiya banklari, reyting agentliklari, kliring markazlari, xalqaro depozitariylar; ularning vazifalari va faoliyat mexanizmi. Xalqaro korporatsiya shakllari: transmilliy korporatsiyalar, xoldinglar, qo‘shma korxonalar. Xalqaro moliya institutlari: Jahon banki guruhi, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, investitsiya kafolati va siyosiy risk sug‘urtasi institutlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasini yanada rivojlantirish va faoliyati samaradorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3326-son Qarorida belgilangan vazifalar. O‘zbekistonda investitsiyalarni boshqarish institutsional tizimini takomillashtirish, investitsiya loyihalarini tayyorlash va ilgari surish, investorlar bilan ishlashni kuchaytirish, hududiy investitsiya salohiyatini ochish, davlat organlari o‘rtasida muvofiqlashtirishni yaxshilash.

Raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish bo‘yicha eng muhim vazifalar: investitsiyaviy va tadbirkorlik faoliyatini diversifikatsiya qilish uchun kripto-aktivlar aylanmasi sohasida faoliyat turlarini rivojlantirish, jumladan mayning (kripto-aktivlarda yangi birliklar yaratish va komissiyalar hisobidan mukofot olish imkonini beruvchi hisoblash jarayoni), smart-shartnomalar (raqamli bitimlarni avtomatik tarzda bajarishni nazarda tutuvchi elektron shartnoma), konsalting, emissiya, ayirboshlash, saqlash, taqsimlash, boshqarish, sug‘urtalash, kraudfanding (jamoaviy moliyalashtirish), shuningdek “blokcheyn” texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish. “Blokcheyn” texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishda amaliy ko‘nikmalarga ega kadrlarni tayyorlash, kripto-aktivlar va “blokcheyn” sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish, xorijiy mutaxassislarni jalb qilish, ilg‘or tajribani hisobga olgan holda huquqiy bazani takomillashtirish, davlat organlari va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida yaqin hamkorlikni ta‘minlash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5495-son Farmoni bilan investitsiya muhitini yaxshilash yuzasidan belgilangan vazifalar: investorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish, ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish, litsenziyalashni optimallashtirish, nazorat organlari aralashuvini cheklash, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirishning sifat jihatidan yangi tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5717-son Farmonida belgilangan vazifalar: investitsiya dasturini rejalashtirish, loyihalarni tanlash mezonlari, samaradorlik bahosi, amalga oshirish intizomi va hisobdorlikni kuchaytirish, investitsiya jarayonini raqamlashtirish.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 22-iyuldagi “Investitsiya loyihalarini nazorat va monitoring qilish sohasida axborot tizimini joriy etish va undan foydalanish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 616-son Qarori mazmun-mohiyati: investitsiya loyihalarini monitoring qilishning yagona axborot tizimini joriy etish, loyihalar ijrosini nazorat qilish, ma’lumotlar bazasini shakllantirish, hisobdorlik va shaffoflikni ta’minlash.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi hamda so‘nggi qaror va farmonlarda investitsiya va investitsion siyosat bo‘yicha qo‘yilgan maqsad va vazifalar: xususiy sektor ulushini va investitsiya faolligini oshirish, iqtisodiyotga uzoq muddatli resurslarni jalb qilish, biznes muhitini yaxshilash, davlat xizmatlarini fuqaro va tadbirkor manfaatiga moslashtirish, “yashil iqtisodiyot” tamoyillariga asoslangan yuqori o‘sish sur‘atlarini ta’minlash va resurslardan samarali foydalanishni keng joriy etish.

08.00.07 – “MOLIYA, PUL MUOMALASI VA KREDIT” IXTISOSLIGI BO‘YICHA NAMUNAVIY SAVOLLARI

1. Moliyaning narx, foyda, kredit va soliq kabi iqtisodiy kategoriyalar bilan o‘zaro bog‘liqligini taqsimlash va nazorat funksiyalari doirasida tahlil qiling.
2. Davlat moliyasini boshqarish organlarining institutsional tuzilmasini hamda byudjet tizimi ishtirokchilari o‘rtasida prognozlash va ijro jarayonida vakolatlar taqsimotini bayon qiling.
3. “Sarflangan mablag‘lar uchun qiymat” tamoyiliga ta’rif bering va uning davlat xarajatlari samaradorligini hamda ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati baholashdagi ahamiyatini tushuntiring.
4. Davlat krediti shakllarini tasniflang va kapital bozorlari hamda moliyaviy vositachilar orqali resurslarni qayta taqsimlash mexanizmlarini bayon qiling.
5. Byudjet jarayoni bosqichlarini tavsiflang: makroiqtisodiy prognozlash va loyihani tuzishdan tortib, qonun chiqaruvchi organlar tomonidan yakuniy hisobotni tasdiqlashgacha.
6. Dasturli byudjetlashtirishning xususiyatlari va o‘rta muddatli fiskal rejalashtirish doirasida natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirishga o‘tish nimalarda namoyon bo‘ladi?
7. G‘aznachilik tizimining ishlash mexanizmlarini bayon qiling, jumladan Yagona g‘aznachilik hisobining roli va to‘lov intizomini monitoring qilish masalalarini tushuntiring.
8. Fiskal tavakkallarni tahlil qilish va boshqarish usullarini, shuningdek davlat qarzi barqarorligini baholash vositalarini tavsiflang.
9. Ichki audit va tavakkalga yo‘naltirilgan nazorat (muvofiqlik nazorati) byudjet mablag‘laridan maqsadli foydalanishni ta’minlashda qanday rol o‘ynaydi? Izohlang.
10. “Fuqarolar uchun byudjet” yondashuvining ahamiyatini va jamoatchilik nazorati vositalarining fiskal shaffoflik hamda hisobdorlikni oshirishdagi o‘rmini tushuntiring.
11. Byudjetlararo transfertlarni (maqsadli transfertlar, qoplab beruvchi transfertlar) formula asosida taqsimlash mexanizmlarini solishtiring va ularning hududlarning moliyaviy mustaqilligiga ta’sirini baholang.
12. Fiskal markazdan xoli qilish (detsentralizatsiya) tushunchasini ochib bering va hududiy moliyaviy barqarorlikni ta’minlash uchun mahalliy byudjetlar daromad bazasini mustahkamlash yo‘llarini ko‘rsating.
13. Korxonalarda investitsiya loyihalarini baholash usullarini sof joriy qiymat, ichki rentabellik me’yori va o‘zini oqlash muddati ko‘rsatkichlari asosida bayon qiling.
14. Korxonaning aylanma kapitali va likvidligini boshqarishni tahlil qiling, shuningdek moliyaviy rıchag ta’sirining kapital tuzilmasiga ta’sirini tushuntiring.
15. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari davlat sektorida va davlat ishtirokidagi korxonalarda moliyaviy hisobot hamda korporativ boshqaruv bo‘yicha qanday talablarni belgilaydi?
16. Raqamlashtirishning (elektron g‘aznachilik, elektron hisobvaraƒ-fakturalar) moliyaviy oqimlar shaffofligiga va yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirishga ta’sirini baholang.
17. “Yashil” byudjetlashtirishning xususiyatlari nimada va investitsiya qarorlarini qabul qilishda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv mezonlarini qo‘llash qanday amalga oshiriladi?
18. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va ijtimoiy xarajatlar samaradorligini oshirish sohasidagi asosiy ustuvor yo‘nalishlarini shakllantiring.
19. “2026-yil uchun Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonun byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish maqsadida byudjet va soliq siyosatiga qanday o‘zgartishlarni kiritadi?
20. Adam Smit taklif qilgan soliqqa tortishning to‘rt tamoyili (adolatlilik, aniqlik, qulaylik, tejamkorlik) mazmunini ochib bering va ularning zamonaviy soliq siyosati shakllanishidagi ahamiyatini tushuntiring.

21. Artur Laffer egri chizig‘i asosida soliq stavkasi darajasi bilan soliq tushumlari hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qiling va soliq yukining haddan tashqari yuqori belgilanishi qanday oqibatlariga olib kelishini izohlang.
22. Soliqlarning fiskal, tartibga soluvchi, qayta taqsimlash va nazorat funksiyalariga batafsil tavsif bering va davlat boshqaruvida ushbu funksiyalar muvozanati qanday ta‘minlanishini tushuntiring.
23. Soliq imtiyozlarini baholashda “sarflangan mablag‘lar uchun qiymat” tamoyili mohiyatini tushuntiring va investitsiyalar hamda ish o‘rinlari kabi iqtisodiy natijalar berilgan imtiyozlar bilan qanday mutanosib bo‘lishi kerakligini asoslang.
24. Soliq xarajatlari tushunchasi nimalarni qamrab olishini ochib bering va imtiyozlar sabab yo‘qotilgan ehtimoliy byudjet daromadlari bo‘yicha hisobot shaffofligini ta‘minlash nima uchun muhim ekanini tushuntiring.
25. Haddan tashqari soliq imtiyozlarining soliq bazasining yemirilishi, bozor raqobatining buzilishi va soliqdan qochish imkoniyatlarining kengayishi kabi salbiy oqibatlarini tavsiflang.
26. Soliq to‘lovchining haqligi prezumpsiyasi tamoyili mohiyatini ochib bering va soliq ma‘muriyatchiligida huquqiy aniqlik hamda barqarorlikni ta‘minlash qanday amalga oshirilishini tushuntiring.
27. Soliqning asosiy elementlarini (soliq to‘lovchi, soliq obyeksi, soliq bazasi, soliq stavkasi, soliq davri, hisoblash va to‘lash tartibi) sanab bering va ushbu elementlardan birortasining yo‘qligi soliqning qonuniyligiga qanday ta‘sir qilishini izohlang.
28. Mutanosib, progressiv va regressiv soliq stavkalarini qiyosiy tahlil qiling va nominal stavka bilan samarali soliq stavkasi o‘rtasidagi amaliy farqni tushuntiring.
29. Korxonada darajasida soliq yukini tushumga, foydaga yoki qo‘shilgan qiymatga nisbatan hisoblash usullarini bayon qiling va bu ko‘rsatkich biznes barqarorligini tahlil qilishda qanday ahamiyatga ega ekanini tushuntiring.
30. Xavf profillari asosida soliq nazorati qanday tashkil etilishini tushuntiring va ma‘lumotlarni raqamli integratsiya qilish nazorat resurslarini xavfi yuqori segmentlarga yo‘naltirishga qanday yordam berishini izohlang.
31. O‘zbekiston Respublikasi misolida soliq tizimi tushunchasi bilan soliq mexanizmi tushunchasi o‘rtasidagi farqni ochib bering va ularning tarkibiy qismlarini misollar bilan tushuntiring.
32. Daromad va mol-mulkka nisbatan qo‘llanadigan bevosita soliqlar hamda qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i kabi bilvosita soliqlarni taqqoslang va bilvosita soliqqa tortish iste‘mol tuzilmasi hamda inflyatsiya jarayonlariga qanday ta‘sir ko‘rsatishini tahlil qiling.
33. Rezidentlik va daromad manbai tamoyillari mazmunini ochib bering va xalqaro soliq shartnomalari ikki karra soliqqa tortishning oldini olish hamda transchegaraviy tavakkallarni boshqarishda qanday rol o‘ynashini tushuntiring.
34. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida soliq siyosatidagi asosiy yo‘nalishlarni bayon qiling va soliq adolatligini ta‘minlash, soliq ma‘muriyatchiligi shaffofligini oshirish hamda imtiyozlarni yakuniy natijalarga bog‘lash masalalarini tushuntiring.
35. Sug‘urtaning iqtisodiy mohiyatini ochib bering va risklarni taqsimlash hamda ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash kabi o‘ziga xos belgilarini tavsiflang.
36. Sug‘urtaning asosiy funksiyalarini tahlil qiling: risklarni boshqarish va fiskal barqarorlikni ta‘minlashdan tortib investitsiya funksiyasi hamda sug‘urta zaxiralarini shakllantirishgacha.
37. Bozorda mavjud sug‘urta shakllari va turlarini tasniflang (majburiy va ixtiyoriy; shaxsiy, mol-mulk sug‘urtasi, javobgarlik sug‘urtasi va tadbirkorlik risklari sug‘urtasi).
38. Sug‘urta munosabatlarining asosiy tushunchalariga ta‘rif bering: “sug‘urta hodisasi”, “sug‘urta badali”, “sug‘urta summasi” va “sug‘urta to‘voni”.

39. Sugʻurta shartnomasini tuzish bosqichlarini va daʼvolarni (toʻlovlarni) boshqarish jarayonini bayon qiling, jumladan zararni ekspertiza qilish va sugʻurta dalolatnomasini rasmiylashtirish masalalarini qamrab oling.
40. Sugʻurta shartnomasida “franshiza”ning oʻrni nimadan iborat va u sugʻurtalanuvchining risk-intizomiga qanday taʼsir koʻrsatadi?
41. Sugʻurta (texnik) zaxiralarini shakllantirish mexanizmini ochib bering va sugʻurta tashkilotlarining toʻlov qobiliyati (solventlik) hamda kapital yetarliligiga qoʻyiladigan talablarni tushuntiring.
42. Qayta sugʻurtalash va hamsugʻurtalashning ahamiyatini tushuntiring, ular yirik (ofatli) risklarni qayta taqsimlash va tashqi bozorlarga bogʻliqlikni kamaytirishda qanday instrumentlar hisoblanadi?
43. Moliyaviy barqarorlik va isteʼmolchilar ishonchi nuqtayi nazaridan sugʻurta bozorini kapitallashtirishning asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
44. Sugʻurta bozorining asosiy ishtirokchilarini sanab bering va aktuariylar, sugʻurta brokerlari, syurveyerlar hamda avariya komissarlarining kasbiy vazifalarini ochib bering.
45. Sugʻurta nazoratini tashkil etish tamoyillarini bayon qiling, jumladan litsenziyalash, hisobdorlik va nazoratda xavfga asoslangan yondashuvni joriy etish masalalarini tushuntiring.
46. Oʻzbekistonda transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurtalash (OSAGO) hamda ish beruvchining javobgarligi boʻyicha majburiy sugʻurtaga qonunchilik qanday asosiy talablarni qoʻyadi?
47. Oʻzbekiston Respublikasining “Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonuni (№OʻRQ-730) va Prezidentning soʻnggi qarorlari (PQ-108)ning bozor infratuzilmasini rivojlantirishdagi ahamiyatini tahlil qiling.
48. Sugʻurta bozorini raqamlashtirish yoʻnalishlarini tavsiflang: “elektron polis” tizimini joriy etishdan tortib telematikadan foydalanish va zararni masofadan baholashgacha.
49. Maʼlumotlar tahlili va raqamli daʼvolarni tezkor koʻrib chiqish kontekstida “Inshurtex” (InsurTech) konsepsiyasi nimani anglatadi?
50. “Yashil” sugʻurtaning mohiyatini va iqlim hamda qishloq xoʻjaligi risklarini qoplashda qoʻllanadigan parametrik modellar mazmunini ochib bering.
51. Sugʻurta operatsiyalari shaffofligini taʼminlashda korporativ boshqaruv, muvofiqlik nazorati (komplayens) va antifrod (firibgarlikka qarshi kurash) tizimlari qanday rol oʻynaydi?
52. Isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilish standartlarini bayon qiling, jumladan tariflar shaffofligiga qoʻyiladigan talablar, xizmat sifati reytinglari va shikoyatlarni koʻrib chiqish mexanizmlarini tushuntiring.
53. “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasi doirasida moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshirish va biznesni institutsional himoya qilishga qaratilgan sugʻurta siyosati ustuvor vazifalarini shakllantiring.
54. Sugʻurta kompaniyalarining zamonaviy investitsiya siyosati iqtisodiyotda uzoq muddatli resurslarni shakllantirishga qanday qilib hissa qoʻshadi?
55. Pul-kredit siyosatidagi asosiy monetar maqsadlar (narxlar barqarorligi va moliyaviy barqarorlik) nimalardan iborat va transmissiya mexanizmi kanallari (foiz kanali, kredit kanali, valyuta kanali va kutilmalar kanali) qanday ishlaydi?
56. Inflyatsiyani maqsadli boshqarish sharoitida Markaziy bank likvidlikni tartibga solish uchun qanday vositalardan foydalanadi (qayta moliyalashtirish stavkasi, ochiq bozor operatsiyalari, majburiy zaxira meʼyorlari)?
57. Pul agregatlari M0, M1, M2 tushunchalarini taʼriflang va ularning makroiqtisodiy vaziyatni tahlil qilish hamda pul massasini rejalashtirishdagi ahamiyatini tushuntiring.
58. Bank nazoratida xavfga asoslangan yondashuv vositalarini tahlil qiling, jumladan stress-sinovlar oʻtkazish va aktivlar sifatini kompleks baholash (aktivlar sifati tahlili) qanday amalga oshirilishini tushuntiring.

59. Bazel qo‘mitasining II–III standartlari doirasida prudensial me‘yorlar mazmunini tushuntiring, jumladan kapital yetarliligi koeffitsiyentlari va likvidlik ko‘rsatkichlari (likvidlikni qoplash koeffitsiyenti va barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti) bank tizimi barqarorligini ta‘minlashda qanday o‘rin tutadi?

60. Bankda aktivlar va passivlarni boshqarish tizimida passivlar va aktivlar tuzilmasi qanday shakllanadi, likvidlik buferi qanday yaratiladi va inqirozli holatlarda harakat rejalari qanday tashkil etiladi?

61. Bank risklarining asosiy turlarini (kredit riski, bozor riski, operatsion riski, qonunchilikka muvofiqlik riski) tavsiflang va ularni baholashning zamonaviy usullari sifatida kredit skoringi hamda kovenantlar tizimi qanday qo‘llanishini tushuntiring.

62. Kredit va depozit siyosati doirasida kreditlashning asosiy tamoyillarini (qaytarishlilik, to‘lovlilik, muddatlilik, ta‘minlanganlik) bayon qiling va bank rentabelligiga ta‘sir etuvchi omillarni aktivlar rentabelligi hamda kapital rentabelligi ko‘rsatkichlari orqali tushuntiring.

63. Bank munosabatlarining huquqiy mohiyati nuqtayi nazaridan bank hisobvaraqlarini yuritish tartibi, mijozning yagona ma‘lumotlar bazasi tushunchasi hamda bank sirini saqlash va qonunchilikka muvofiqlik nazorati talablari nimalardan iborat?

64. Naqd pulsiz hisob-kitob shakllarini (to‘lov topshiriqnomasi, akkreditiv, inkasso) hamda zamonaviy raqamli yechimlarni (QR-to‘lovlar, elektron hamyonlar) qiyosiy tahlil qiling va ularning afzallik hamda cheklovlarini asoslang.

65. Faktoringning iqtisodiy mohiyatini ochib bering, debitor qarzdorlikni moliyalashtirish mexanizmi qanday ishlashini tushuntiring va regressli faktoring hamda regresssiz faktoring o‘rtasidagi farqni izohlang.

66. Valyutani tartibga solish sharoitida banklar valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda qanday rol o‘ynaydi va trast (ishonchli boshqaruv), lizing hamda brokerlik xizmatlarini ko‘rsatish orqali xizmatlar turini qanday diversifikatsiya qiladi?

67. Ochiq bankchilik va fintex ekotizimlari doirasida ochiq bank interfeyslarini joriy etish hamda masofaviy shaxsni tasdiqlash moliyaviy xizmatlar bozorini qanday o‘zgartiradi?

68. So‘nggi normativ hujjatlar asosida banklarning axborot infratuzilmasini himoya qilish talablari nimalardan iborat va moliyaviy firibgarlikka qarshi kurash usullari sifatida operatsion monitoring hamda sessiyalarni tahlil qilish qanday qo‘llanadi?

69. Mikromoliya sektorini transformatsiya qilish nuqtayi nazaridan mikromoliya tashkilotlarini mikromoliya banklariga aylantirish imkoniyatlarini ochib bering va ularning moliyaviy qamrovni kengaytirishdagi rolini tushuntiring.

70. Bank sektorda davlat ishtirokini qisqartirish uchun davlat ishtirokidagi banklarni xususiylashtirish mantig‘ini asoslang va aktivlarni boshqarishda Milliy investitsiya jamg‘armasining o‘rnini tushuntiring.

71. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi talablari nuqtayi nazaridan bank tizimi barqaror iqtisodiy o‘rinishni ta‘minlash va investitsiya muhitini yaxshilashda qanday rol o‘ynaydi?

72. To‘lov tashkilotlari va to‘lov tizimlari operatorlari uchun litsenziyalashda kapital va boshqaruvga oid yangilangan talablar nimalardan iborat?

73. “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ-964)dagi o‘zgartishlarni tahlil qiling va ular regulyatorning mustaqilligiga qanday ta‘sir ko‘rsatishini tushuntiring.

74. Mulkchilikka doir qimmatli qog‘ozlar va qarzdorlikka doir qimmatli qog‘ozlar o‘rtasida mulkchilik mantig‘i, dividend va kupon siyosati hamda emitent tugatilganda huquqlar ustuvorligi nuqtayi nazaridan qanday fundamental farqlar mavjud?

75. Qimmatli qog‘ozlarga xos asosiy risk turlarini tavsiflang va ularning aktiv daromadlilikiga ta‘sirini tushuntiring, jumladan defolt riski, likvidlik riski, foiz stavkasi riski va bozor riski qanday namoyon bo‘ladi?

76. Imtiyozli aksiyalar, ipoteka qimmatli qog'ozlari va aktivlar bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar kabi gibril va ta'minlangan instrumentlarning o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?

77. Hosilaviy moliyaviy instrumentlar tuzilmasini bayon qiling va forward bitimlari, fyuchers shartnomalari, svop kelishuvlari hamda opsionlar o'rtasidagi farqlarni tushuntiring, shuningdek birja orqali tuziladigan va birjadan tashqari shartnomalar o'rtasida standartlashtirish hamda kliring nuqtayi nazaridan qanday farqlar bor?

78. Opsionlarning sezgirlik koeffitsiyentlari tushunchalarini ta'riflang va delta, gamma, teta hamda vega ko'rsatkichlari dinamik xedjirlash va opsion portfelini boshqarishda qanday ahamiyatga ega ekanini tushuntiring.

79. Birlamchi va ikkilamchi bozorlar qanday ishlashini qiyosiy tushuntiring va birlamchi ommaviy joylashtirishda anderrayingning roli hamda birja stakani orqali bozor narxining shakllanishi, spread va likvidlik tushunchalari qanday izohlanadi?

80. Savdodan keyingi xizmat ko'rsatish zanjirini bayon qiling va markaziy depozitariy, kliring tizimlari hamda kastodian xizmatlar yetkazib berish va to'lovni bir vaqtda amalga oshirish tamoyili hamda hisob-kitoblarni belgilangan davrda amalga oshirish jarayonida qanday rol o'ynaydi?

81. Qimmatli qog'ozlar chiqarish jarayoni mazmunini ochib bering va korporativ qaror qabul qilish, emissiya prospektini ro'yxatdan o'tkazish, listingga kiritish hamda keyingi axborotni oshkor etish bosqichlari qanday amalga oshiriladi?

82. Listing talablarini korporativ boshqaruv, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bo'yicha audit va investorlar uchun axborot shaffofligi nuqtayi nazaridan tahlil qiling.

83. Marjinal savdo va qayta sotib olish shartnomalari mantig'ini tushuntiring va ta'minot mexanizmi, marja talablari, marja chaqiruvi hamda ushbu operatsiyalarda kontragent riski qanday shakllanishini bayon qiling.

84. Qarzdorlik instrumentlarini baholashda pulning vaqt qiymati va diskontlash tamoyillarini tushuntiring va dyuratsiya, qavariqlik hamda kredit spreadi tushunchalarini qo'llagan holda ularning amaldagi ahamiyatini ochib bering.

85. Zamonaviy portfel nazariyasi doirasida samarali chegara, diversifikatsiya va risk hamda daromadlilik muvozanati tushunchalarini bayon qiling.

86. Kapital aktivlarini baholash modelida xavfsiz stavka, beta koeffitsiyenti va bozor riski uchun mukofot o'z kapitali qiymatini aniqlashda qanday rol o'ynaydi?

87. Xulq-atvor moliyasi va axborot asimmetriyasi bozor samaradorligiga va narx pufaklarining shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qiling va irratsional qarorlar hamda ommaga ergashish effektini tushuntiring.

88. Investitsiya jamg'armalarining institutsional rolini tushuntiring va pay jamg'armalari, birja savdosidagi jamg'armalar hamda venchur jamg'armalarning iqtisodiy ko'rsatkichlari sifatida sof aktivlar qiymati va komissiya tuzilmasi qanday baholanishini bayon qiling.

89. Davlat tomonidan tartibga solish va nazoratning asosiy tamoyillarini ochib bering va minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish, bozor manipulyatsiyalarining oldini olish hamda insayderlik savdosiga qarshi kurash qanday ta'minlanishini tushuntiring.

90. Kapital bozorida qonunchilikka muvofiqlik nazorati talablarini bayon qiling va mijozni bilish, pul mablag'larini legallashtirishga qarshi kurash hamda terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash doirasida benefitsiar mulkdorlarni aniqlash va shubhali operatsiyalarni monitoring qilish qanday amalga oshiriladi?

91. Moliyaviy globallashtirishning zamonaviy tendensiyalarini tahlil qiling va blokcheyn asosida aktivlarni tokenlashtirish, ekologik, ijtimoiy va boshqaruv tamoyillariga asoslangan investitsiyalar, yashil obligatsiyalar hamda islom moliyasi instrumentlari kabi yo'nalishlarning mazmunini ochib bering.

92. “O‘zbekiston—2030” strategiyasida kapital bozorini rivojlantirish, mijozlarni masofaviy raqamli identifikatsiya qilishni joriy etish va tartibga soluvchi sinov maydonchalarini tashkil etish bo‘yicha qanday vazifalar belgilanganini bayon qiling.

93. Iqtisodiyotda uzoq muddatli likvidlikni ta‘minlash va davlat korxonalarini xususiyashtirish mexanizmlari orqali transformatsiya qilishda institutsional investorlar hamda banklarning roli nimadan iborat?

94. Investitsiyalarning iqtisodiy mohiyatini iqtisodiy o‘shishning asosiy omili sifatida ochib bering va kapital jamg‘arilishi, texnologik yangilanish hamda mehnat unumdorligini oshirishdagi rolini tushuntiring.

95. Real investitsiyalar va moliyaviy investitsiyalar o‘rtasida qiyosiy tahlil o‘tkazing hamda ularni qo‘yilma obyektlari bo‘yicha tasniflang, jumladan asosiy kapital, texnologiyalar, qimmatli qog‘ozlar va depozitlar.

96. Yashil investitsiyalar, venchur moliyalashtirish, xususiy kapital investitsiyalari va ijtimoiy ta‘sir investitsiyalari kabi zamonaviy investitsiya shakllarining o‘ziga xos jihatlarini tavsiflang.

97. Investitsiya faoliyati subyektlarini tasniflang va yakka tartibdagi investorlar, institutsional investorlar hamda professional investorlarning rollarini ajratib ko‘rsating.

98. Investorlar maqsadlari va cheklovlarini tahlil qiling, jumladan daromadlilik va risk muvozanati, likvidlik talablari, tartibga soluvchi limitlar hamda ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv mezonlari qanday hisobga olinishini tushuntiring.

99. Investitsiya resurslarini shakllantirish manbalarini tasniflang va ularni ichki manbalar hamda tashqi manbalarga ajratgan holda misollar bilan yoriting.

100. Davlat, xususiy sektor va xalqaro moliyaviy institutlar resurslarini birlashtirishga asoslangan aralash moliyalashtirish mantig‘ini tushuntiring.

101. Investitsiya risklarini baholash va boshqarish usullarini bayon qiling va ehtimoliy yo‘qotishlarni hisoblash, stress-sinov hamda ssenariy tahlili qanday qo‘llanishini tushuntiring.

102. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun faol va passiv investitsiya siyosati o‘rtasidagi farqlarni kapitalni o‘shish strategiyalari va kapitalni saqlab qolish strategiyalari nuqtayi nazaridan tushuntiring.

103. Moliyaviy aktivlar bilan foiz stavkalari, inflyatsiya kutilmalari va valyuta kurslari kabi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qiling.

104. Investitsiya muhitini baholash parametrlarini shakllantiring va institutlar sifati, huquqiy kafolatlar, tartibga soluvchining barqarorligi hamda infratuzilma sifati qanday inobatga olinishini tushuntiring.

105. Jahon bankining biznes muhitini baholashdagi yangi yondashuvi sifatida biznesga tayyorlik indeksi mazmunini ochib bering.

106. Davlat tomonidan qo‘llanadigan investitsiya rejimlarini bayon qiling va umumiy rejim, imtiyozli rejim, maxsus iqtisodiy hududlar rejimi hamda davlat-xususiy sheriklik rejimi mazmunini tushuntiring.

107. Davlatning investitsiyalarni rag‘batlantirish instrumentlarini sanab bering va soliq hamda bojxona imtiyozlari, subsidiyalar, yer ajratish hamda yagona darcha xizmati orqali qo‘llab-quvvatlash qanday amalga oshirilishini tushuntiring.

108. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiyotiga ta‘sirini texnologiyalar transferi, boshqaruv tajribasi va global qiymat zanjirlariga integratsiya orqali tahlil qiling.

109. Investitsiya siyosati bo‘yicha asosiy nazariyalarni qiyosiy taqqoslang va neoklassik o‘shish nazariyasi, endogen o‘shish nazariyasi hamda transmilliy korporatsiyalar uchun mulkchilik, joylashuv va ichkilashtirish paradigmasi mazmunini tushuntiring.

110. Xalqaro moliyaviy institutlarning investitsiya muhitini yaxshilash va siyosiy risklarga qarshi kafolatlar berishdagi rolini tavsiflang.

111. Xalqaro kapital bozorining ishlash mexanizmlarini bayon qiling va yevrobondlar bozori, suveren jamg'armalar hamda risklarni xedjirlash uchun hosilaviy moliyaviy instrumentlar qanday qo'llanishini tushuntiring.

112. Raqamli iqtisodiyotning investitsiya faoliyatiga ta'sirini tushuntiring va blokcheyn, aqlli shartnomalar, jamoaviy moliyalashtirish hamda kripto-aktivlarni tartibga solish masalalarini yoritib.

113. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi va loyihalar ijrosini raqamli monitoring qilish tizimi doirasida O'zbekiston Respublikasining investitsiya siyosati bo'yicha ustuvor vazifalarini shakllantiring.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNLARI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi..Mazkur yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovozi berish orqali qabul qilingan.

2. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 30.04.2023 (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.10.2022-y., 02/22/798/0972-son; 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son)

3. O‘zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrir), 2019-yil 22-oktyabr, O‘RQ-573-son

4. O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrir), 2000-yil 26-may.

